

IBORA VA MAQOLLAR TARJIMASIDA EKVIVALENTLIKNING O‘RNI

Abdullayeva E‘zoza Abdurasul qizi
O‘zDJTU magistranti

Annotatsiya: Har bir tilda ibora va maqollar nutqning ko‘rkidir. Shu maqsadda muloqotda nutq o‘stiruvchi vositalarni, ulardan foydalanish va tarjima qilish usullarini, iboralar va maqollarni o‘rganish muhimdir. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tilidagi maqol hamda iboralarni qiyosiy tahlili, ekvivalentligi, o‘xshash va farqli jihatlari, o‘ziga xos tuzilmaviy xususiyatlari o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: frazeologizm, komponent, ekvivalentlik, proverbial non-proverbial, klassifikatsiya.

Tarjimashunoslikda ekvivalentlik masalasiga doir mavzular, ekvivalentlikning yuzaga kelishidagi darajalarning o‘rni, qo‘llash uslubi masalasi dolzarb muammolardan bo‘lib kelmoqda. Shu sababdan ham ibora va maqollarni tarjima qilishda biz doim ularning asosiy jihatlardagi ekvivalentiga murojaat qilamiz.

Maqol va iboralarni kundalik hayotimizda nutqimizni ta’sirchan va bo‘yoqdor qilishda foydalanamiz. Maqol va iboralar har bir xalqning milliy-ma’naviy qadriyatlaridan kelib chiqqanligi bois kishi xotirasida nutqaga tayyor holda saqlanadi. Bundan tashqari ular og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki ko‘chma ma’noda ishlatilishi mumkin. Ingliz va o‘zbek tilidagi maqol va iboralarning har biri o‘zining leksik-semantik usususiyatiga ega. Tarjima jarayonida ham maqol va iboralar bir tildan ikkinchi to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinmaydi. Avvalo tarjima qilinayotgan tildagi ekvivalentiga murojaat qilinadi. Ba’zi hollarda ibora va maqollarda proverbial ma’no ustunlik qiladi. Buni tarjimon ish jarayoniga mohirona yondashgan holda uning muqobilini tanlaydi yoki ma’noni saqlagan holda tarjima qiladi.

Shu xususida, A. V. Kunining ilmiy kuzatishiga qaraganda: Frazeologiyalar ya’ni iboralar to‘liq va qisman ko‘chma ma’noda ishlatiladigan turg‘un so‘zlar birikmasidir.

A. I. Molotkov esa frazeologizmlar xususida quyidagi tushunchani keltiradi: „So‘z belgilarini yo‘qotgan komponentlardan tashkil topgan, o‘zini doimiy belgisi bo‘lmish leksik ma’noga ega bo‘lgan ibora-frazeologizm hisoblanadi. Ibora va maqollar qiyosiy jihatdan interperentsiya qilganida, ularning muayyan tildagi ekvivalenti topiladi.“³³

Iboralarning ma’nosini bir qarashda anglab bo‘lmaydi, chunki ular asosan proverbial (ko‘chma) tarzda qo‘llaniladi. Masalan: ingliz tilida: „Apple of someone’s eye“ o‘zbekcha ekvivalenti „Kimningdir ko‘zining oq-u qorasi“ yoki

^{33*} Nasirov Abdurahim Abdumutalopovich Proverbial frazeologiya masalalari: Monografiya. -T. „Sharq“ nashriyoti, 2016. -b.2

„Arzandasi".Ikkinchi bir misol sifatida „To spill the beans"ni ko'rishimiz mumkin va uni o'zbek tiliga „Og'zi bo'shlik qilmoq"-deb tarjima qilamiz. Misollardan shuni ko'rishimiz mumkinki, bu iboralarning ikki tilda ham turli komponentlar orqali talqin qilinishini kuzatishimiz mumkin. Qiyosiy talqin jarayonida ekvivalentlar xilma-xilligini uchramiz.

E'tiborimizni maqollarga qaratadigan bo'lsak,ular da fikr aniq,ifoda lo'nda,xulosa tugal tarzda beriladi.Shu sababdan ham biz og'zaki va yozma nutqimizni ular orqali boyitib nutqiy ta'sirchanlikka erishamiz.

Masalan:ingliz tilidagi ushbu maqolni misol sifatida oladigan bo'lsak :, If you run after two hares,you will catch either" o'zbekcha ekvivalenti „Ikki kemani boshini tutgan g'arq bo'lur".Maqollarda ham komponentlar xilma-xilligi ko'rishimiz mumkin.Masalan:maqolning inglizcha taqlinida „ikki quyon" deyilgan bo'lsa,uni o'zbek tilidagi ekvivalenti,„ikki kema" komponentlari qo'llanilgan ular orasidagi tafovut ma'noni tushunishimizga xalaqit bermaydi .Aksincha, har ikki tilning ham o'ziga xos xususiyatini namoyish etadi.³⁴

Ba'zi hollarda bir tildagi maqolning ikkinchi bir tilda bir nechta ekvivalenti bo'lishi ham mumkin. Masalan: „Beauty is in the eye of the beholder", „Beauty lies in lovers eyes" har ikkisinin ham o'zbek tilidagi ekvivalenti „Suymaganga suykalma".Bu o'rinda har ikkala maqol ham bir xil ma'noni anglatmoqda.

Bu holat aksincha bo'lishi ham mumkin.Masalan:„First deserve and then desire"o'zbekcha talqini „Podadan oldin chang chiqarma" yoki „To' ydan oldin nog'ora chalma".

Tahlil jarayonida ularning tuzilmaviy xususiyatlarida ma'lum bir o'shashliklar hamda farqlanishlar mavjud.Masalan:„As you sow,you shall mow" o'zbekcha ekvivalenti „Ekkaningni o'rasan" ikkisi ham tuzilish,ma' no jihatidan o'shashdir ya'ni ekvivalent maqol tarjimasini bilan bir xil ma' noni anglatmoqda.

Farqlanish yuzaga kelgan holatga misol keltiradigan bo'lsak,masalan: ingliz tilida:„A bird in the hand is worth two in the bush" o'zbek tilidagi muqobili „Uzoqdagi quyruqdan yaqindagi o'pka yaxshi".Ushbu maqoldan ko'rinib turibdiki,turli millat vakillari har xil obrazlardan foydalanishgan. Ingliz tilida,„a bird" qush komponentidan foydalanilgan bo'lsa,o'zbek tilida esa „quyruq yoki „o'pka" so'zlaridan foydalanilgan.Ingliz maqolidagi,„qo'ldagi qush" ni „shoxdagi qush" dan ko'ra afzal deb topilgan bo'lsa,o'zbek tilidagi maqolda esa,yaqindagi „o'pka" uzoqdagi „quyruq" dan qadrli deb topilgan.³⁵

Bu yerda komponentlardagi farqlanishlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Tahlily natijalar orqali biz ibora va maqollarni ma'no jihatidan proverbial va non-proverbial turlarga ajratimiz mumkin. Har ikki tildagi ekvivalentlar oraqali esa komponentlarning o'shash va farqli jihatlarini ilmiy jihatdan tasniflash, ya'ni klassifikatsiya qilish mumkin.Bu holat esa tarjima jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

³⁴ Filologiyaning dolzarb muammolari.Bobokalonova.R.Frazeologik birliklarda ekvivalentlik nazariyasi.-T. „Mumtoz so'z" nashriyoti,2010.-b.65

³⁵ Chet tillarini o'qitishning masalalari.Mirzayeva N.J.Talabalarga ingliz tili og'zaki nutqini o'rgatishda maqollarning ahamiyati.-T. „So'z" nashriyoti.-b.146.



Demak, ibora va maqollar xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo‘lganligi bois, o‘sha millatning, xalqning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi Millat ruhiyatining ko‘zgusi sifatidan kundalik hayotimizda asosiy o‘rinni egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Nasirov Abdurahim Abdumutalopovich Proverbial frazeologiya masalalari:Monografiya.-T. „Sharq”nashriyoti,2016.-4b.
2. Filologiyaning dolzarb muammolari.Bobokalonova.R.Frazeologik birliklarda ekvivalentlik nazariyasi.-T. „Mumtoz so‘z”nashriyoti,2010.-68b
3. Chet tillarini o‘qitishning masalalari.Mirzayeva N.J.Talabalarga ingliz tili og‘zaki nutqini o‘rgatishda maqollarning ahamiyati.-T. „So‘z” nashriyoti.-146b.